

**ZAMONAVIY INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION VA
INTEGRATSION USULLARINING SAMARADORLIGI**

Mirzayeva Zilola Maxammadjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda ingliz tili fanini innovatsion texnologiyalar va integratsion metodlar orqali o‘rgatish va ularda bu tilni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish omillarining ilmiy-nazariy tomonlari yuzasidan fikrlar bildirilgan va shu bilan birga o‘qitishning samaradorligi haqida gapiriladi.

Kalit so’zlar: mustaqil o‘qitish texnologiyalari, chet tillarni o‘rgatish metodologiyasi, nutqiy va kommunikativ kompetensiyalar, munosabat bildirish, mustaqil fikrlash, muloqot qilish, kreativ va innovatsion yondashuvlar.

Аннотация: В данной диссертации излагаются идеи о научных и теоретических аспектах преподавания английского языка с помощью инновационных технологий и интегрированных методов, а также факторы, стимулирующие интерес к изучению этого языка, и в то же время обсуждается эффективность обучения.

Ключевые слова: технологии самостоятельного обучения, методика обучения иностранным языкам, речевые и коммуникативные компетенции, экспрессия, самостоятельное мышление, коммуникация, творческие и инновационные подходы.

Abstract: This thesis presents ideas on the scientific and theoretical aspects of teaching English through innovative technologies and integrated methods and the factors that stimulate interest in learning this language, and at the same time discusses the effectiveness of teaching.

Keywords: independent learning technologies, foreign language teaching methodology, speech and communicative competencies, expression, independent thinking, communication, creative and innovative approaches.

KIRISH

Har qanday ta’limning sifati va samaradorligi maqsadning belgilanishidagi aniqlik darajasiga bog‘liq. Ingliz tili o‘qitishda amaliy (ustuvor), umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar e’tirof etilgan. Mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlarida ingliz tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat. Rivojlangan demokratik davlatlarda to‘plangan tajribalar va ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda ingliz

tili kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallahsga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida o‘rgatiladi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyalanuvchilardan boshlab ta’lim bosqichlaridagi o‘quvchi va talabalarga ingliz tilini dars jarayonida innovatsion texnologiyalar asosida o‘rgatish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Respublikamizda dunyodagi davlatlar bilan turli sohalarni rivojlantirish bo‘yicha serqirra hamkorlik qilish, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy ishlarda aloqalar o‘rnatish, ayniqsa bir-birini anglash va tushunish, qadrlash, e’zozlash, hurmat qilish singari insoniy tuyg‘ular rivoji ingliz tilini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 11-iyuldagagi PF-5763-son “ Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida:

- “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish; -

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqr o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta’minalash;

-ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash;

-oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro mustahkam integratsiyasini ta’minalash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish hamda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash” kabi qator vazifalar belgilangan.

Har bir o‘qituvchi ingliz tili o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va uni egallahsga sharoit yaratadi. Til o‘rganish asosida o‘quvchi, talabalarda fanni o‘rganib ingliz tilining grammatikasini bilgan holda erkin muloqot qilishi, mustaqil holatda fikr bildira olishi, tafakkur qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ingliz tili darslarini ilg‘or zamonaviy usullar, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarni qo‘llab darsni tashkil qilish ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda o‘rni salmoqli sanaladi.

Talaba yoshlarga ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ulardagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, qo‘llab-quvvatlash ishlarini olib borish bu tilni tezroq o‘rganishga yordam beradi. Shuning uchun o‘quvchilarni ingliz tilini o‘rganishga oid quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur

- turli elektron manbalar bilan ta‘minlash ishlarini olib borish;
- ta’lim muassasalarida til o‘rganish bo‘yicha metodik ta’minotni yaratish;
- mavjud o‘qitilayotgan darsliklardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- dars jarayoniga kuchli va malakali mutaxassislarni jalg qilish;
- o‘quv jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarining yetarli darajada joriy etish;
- o‘qitishda o‘quvchilarni rag‘batlantirish ishlariga e’tibor qaratish va baholash tizimi sifatini nazorat qilish.

Bugun jahon hamjamiyati o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”

Ingliz tili darslarining sifat va samaradorligini nazoratga olish, olingen ma’lumotlarni asosiy qismini kundalik hayotda nutq ko‘rinishlarida o‘sganlida namoyon bo‘ladi. Darsda innovatsion texnologiyalardan foydalanish til o‘qitish va o‘rgatish vositasi sifatida baholash ko‘plab ijobiy natijalarni, afzalliklarni yuzaga kelishiga yordam beradi.

Innovatsiya (inglizcha “innovatsion”) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovotsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda ahamiyatli jihatga ega.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning tafakkuri, tasavvurlari, dunyoqarashi, qiziqishlarini orttirish bo‘yicha olib borilgan ishlarda o‘z ifodasini topadi. Makkartining ta’kidlashicha, “chet tillarini o‘qitish metodologiyasi o‘tgan yarim asr davomida juda rivojlandi. Turli vaqtarda grammatik tarjima, audio-lingvistik tuzilish, global audiovizual, induktiv/deduktiv, funksional, g‘oyaviy, situatsion, kommunikativ, immersiya, o‘rganish/olish, tavsiya va boshqalarda olib borilgan”. Binobarin, dars jarayonida audiovizual vositalardan foydalanish natijasida xotirada so‘zlarning semantik ma‘nosini yodda saqlash va leksik birliklarni qo‘llash ko‘nikmasi takomillashadi. Ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar talaba-yoshlarning yuqori darajada bilimli, keng darajada yuqori malakaga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuni aytish lozimki, o‘quvchilar ingliz tilini o‘rganishlari uchun bu tilning grammatikasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishi uchun ular, avvalo, o‘z ona tilisining grammatikasini yetarli darajada bilishi va jonli nutqda to‘liq rioya qilishi bilan xarakterlanadi.

XULOSA

Demak, talabalarga ingliz tilini innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o‘rgatish ularda bu tilni o‘rganish uchun, mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma, malakalar hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasi proffessionl ta‘limning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lganligi sababli, ularda til o‘rganishga bo‘lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta‘limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda, o‘quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o‘rganishga yordam beruvchi asosiy ma‘lumot to‘plamlari bilan tanishgan holda o‘rganadilar. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o‘quv materiallarining katta to‘plamlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. D. B. Muminova., D. I. Normatova Nofilologik institut talabalari uchun ingliz tili grammatikasidan uslubiy qo’llanma.— Toshkent 2016.56-bet.
2. Саломов F. Тил ватаржима. -Тошкент., “Фан”, 1966., -239-бет.
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “Chet tilini o’qitishda yordamchi vositalardan foydalanish”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.
4. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” Toshkent — 2012.
5. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: J.J.Jalolov, M.T.Irisqulov. – Xalq ta’limi. – №4 – Toshkent, 2013.
6. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012.